



JANUBIY KOREYADA TURIZM INFRATUZILMASI TAHLILI

Tohirov Asilbek

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0001-4143-7351

tokhirovasilbek153@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida Janubiy Koreyada turizm infratuzilmasi tahlili o'rganilib, mamlakatning transport tarmoqlari, raqamli (smart) xizmatlar, ekologik monitoring va favqulodda holatlarga moslashuvchanlik komponentlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv asosida infratuzilma holatini baholashni ko'zlaydi. Tadqiqotda transport infratuzilmasi, internet va 5G qamrovi, smart tourism ilovalari, kiberxavfsizlik, yashil infratuzilma va pandemiayagacha hamda undan keyingi moslashuv (resilience) omillari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mintaqaviy nomutanosiblik va raqamli inklyuzivlik muammolari ham yoritiladi. yaxshilash bo'yicha amaliy choralar tahlil qilinadi. Tadqiqotdan asosiy maqsad Janubiy Koreya turizm infratuzilmasini integratsiyalashgan baholash modeliga asoslanib o'rganish, mavjud kuchli va zaif tomonlarni aniqlash va favqulodda vaziyatlarda moslashuvchanlikni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Shuningdek, ushbu tadqiqot siyosatchilar va davlat boshqaruvi organlari, turizm sohasi operatorlari va raqamli platformalar egalari, akademik tadqiqotchilar va oliy ta'lim muassasasi talabalari, mahalliy jamoalar va mintaqaviy rivojlanish mutaxassislari hamda ekologiya va atrof-muhitni boshqarish tashkilotlari va urbanizatsiyani rivojlantiruvchi soha mutaxassislari uchun muhim hisoblanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi turizm infratuzilmasini transport, smart xizmatlar, ekologik monitoring va resilience komponentlarini birlashtirgan baholash modeli va empirik indikatorlar to'plamini ishlab chiqish orqali mavzuga yangi nazariy va amaliy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, Janubiy Koreya smart turizm raqamli infratuzilma, transport tizimi, kiberxavfsizlik, ekologik monitoring, resilience (moslashuvchanlik), mintaqaviy nomutanosiblik, qonunchilik va siyosat tahlili, barqaror rivojlanish, ekoturizm.

АНАЛИЗ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ЮЖНОЙ КОРЕИ

Тохиоров Асилбек

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В данном исследовании рассматривается анализ туристической инфраструктуры в Южной Корее с целью оценки состояния инфраструктуры на основе комплексного подхода, включающего компоненты транспортных сетей страны, цифровые (умные) услуги, мониторинг окружающей среды и устойчивость к чрезвычайным ситуациям. В исследовании анализируются транспортная инфраструктура, покрытие Интернетом и 5G, интеллектуальные туристические приложения, кибербезопасность, зеленая инфраструктура и факторы устойчивости до и после пандемии. В то же время будут также освещены вопросы регионального дисбаланса и цифровой инклюзивности. Анализируются практические меры по улучшению. Основная цель исследования — изучить туристическую инфраструктуру Южной Кореи на основе комплексной модели оценки, выявить имеющиеся сильные и слабые стороны и разработать предложения по повышению устойчивости в

чрезвычайных ситуациях. Данное исследование также представляет интерес для политиков и государственных учреждений, туроператоров и владельцев цифровых платформ, научных исследователей и студентов университетов, местных сообществ и специалистов по региональному развитию, а также организаций по экологии и управлению природопользованием и специалистов в области развития урбанизации. Научная новизна исследования заключается в том, что оно вносит новый теоретический и практический вклад в тему путем разработки модели оценки и набора эмпирических показателей, объединяющих компоненты туристической инфраструктуры, транспорта, интеллектуальных услуг, мониторинга окружающей среды и устойчивости.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, цифровая инфраструктура интеллектуального туризма Южной Кореи, транспортная система, кибербезопасность, экологический мониторинг, устойчивость, региональные дисбалансы, правовой и политический анализ, устойчивое развитие, экотуризм.

ANALYSIS OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN SOUTH KOREA

Tokhirov Asilbek

Tashkent Kimyo International University

Abstract. This research study examines the analysis of tourism infrastructure in South Korea, aiming to assess the state of the infrastructure based on a comprehensive approach that includes the country's transport networks, digital (smart) services, environmental monitoring and resilience to emergencies. The study analyzes factors such as transport infrastructure, internet and 5G coverage, smart tourism applications, cybersecurity, green infrastructure and resilience before and after the pandemic. At the same time, it also highlights the problems of regional imbalances and digital inclusion. Practical measures for improvement are analyzed. The main objective of the study is to study the South Korean tourism infrastructure based on an integrated assessment model, identify existing strengths and weaknesses, and develop proposals to increase resilience to emergencies. This study is also of importance to policymakers and government agencies, tourism operators and digital platform owners, academic researchers and students of higher education institutions, local communities and regional development specialists, as well as ecology and environmental management organizations and specialists in the field of urbanization development. The scientific novelty of the study is that it makes a new theoretical and practical contribution to the topic by developing an assessment model and a set of empirical indicators that combine the components of tourism infrastructure with transport, smart services, environmental monitoring and resilience.

Keywords: tourism infrastructure, South Korea smart tourism digital infrastructure, transport system, cybersecurity, ecological monitoring, resilience, regional imbalances, legislative and policy analysis sustainable development, ecotourism.

Kirish.

Janubiy Koreyada turizm infratuzilmasi ilg'or texnologiyalar va barqaror boshqaruv asosida rivojlanmoqda. Yuqori tezlikdagi transport tarmoqlari, keng 5G va keng internet qamrovi (taxminan 97% atrofida), shahar va tog' zonalarida bepul Wi-Fi punktlari, smart tourism ilovalari (masalan, "VISITKOREA") va IoT yechimlari orqali sayyoh tajribasi yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, Tourism Promotion Act kabi qonunlar doimiy ravishda yangilanib, raqamli platformalar, kiberxavfsizlik talablari va favqulodda holatlarga tayyorlik mexanizmlari ko'zda tutilmoqda. Biroq infratuzilmaning mintaqalar bo'yicha nomutanosibligi (Seul, Pusan va Jeju markazlashuvi, chekka hududlarning kam rivojlanganligi), raqamli bo'linish (qariroq aholi yoki chekka zonalarda xizmatlardan to'liq foydalana olmaslik), hamda

kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari hali yechilishini kutmoqda. Ekologik ta'sirni boshqarish (milliy bog'lar va sezgir hududlarda yukni nazorat qilish), favqulodda vaziyatlarda (pandemiya kabi) infratuzilmaning tez moslashuvchanligini oshirish va mahalliy jamoalar hamda madaniy merosni raqamli infratuzilma bilan muvofiqlashtirish ham ustuvor vazifalardir.

Tadqiqotning yangiligi – Janubiy Koreya infratuzilmasini transport, mehmonxona, raqamli xizmatlar, kiberxavfsizlik, ekologik monitoring va favqulodda holatlarga moslashuvchanlik mezonlarini o'zaro integratsiya qilgan baholash modelini ishlab chiqishdir. Empirik jihatdan internet va 5G qamrovi, bepul Wi-Fi punktlari soni, smart ilova foydalanish ko'rsatkichlari, onlayn bronlash hajmi kabi raqamli indikatorlar tahlil qilinadi. Qonunchilik va siyosat hujjatlari (Tourism Promotion Act, smart city/tourism strategiyalari, kiberxavfsizlik normativlari)ni tekshirish orqali bo'shliqlar aniqlanadi. Natijada, infratuzilmaning barqaror va raqamli moslashuvchanligini kuchaytirish hamda chekka hududlarda raqamli inklyuzivlikni oshirish bo'yicha takliflar shakllantiriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Janubiy Koreyada turizm infratuzilmasining rivojlanishi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ilmiy izlanishlar asosan raqamli infratuzilma, pandemiyadan keyingi tiklanish, ekologik turizm, hududiy rivojlanish, transport tizimi, tibbiy turizm va davlat siyosatining turizmga ta'siri kabi yo'nalishlarni qamrab oldi.

Song, Kim va Park (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Suwon shahrida turistik oqimni vaqt oralig'ida muvozanatlashtirish orqali haddan tashqari to'planishni kamaytirish strategiyasi tahlil qilingan. Bu yondashuv, xususan, tungi va mavsumdan tashqari turizmni rag'batlantirish orqali infratuzilma yukini kamaytirishga qaratilgan.

An va An (2021) Yongin shahrida turizm infratuzilmasini qayta jonlantirishda Big Data tahlilining o'rnini ko'rsatdi. Ular mobil aloqa va to'lov tizimlaridan olingan real vaqt ma'lumotlari asosida turizm oqimini tahlil qilishdi va bu orqali mahalliy infratuzilma siyosatini shakllantirishga hissa qo'shishdi.

Seo va Kim (2021) pandemiyadan keyingi davrda tibbiy turizm sohasining tiklanish rejalari bo'yicha tahliliy yondashuvni taklif qildi. Ushbu tadqiqot sog'liqni saqlash infratuzilmasining eksportbop xizmatlar doirasida raqobatbardoshligini oshirish usullarini o'rgandi.

Um va hammualliflar (2022) Incheon shahrini raqamli "metaverse" platforma orqali aqlli turizm shahri sifatida rivojlantirish tajribasini ko'rsatdi. Bu model AR/VR xizmatlari, onlayn yo'lko'rsatkichlar va mobil ilovalarning integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Chang, Lee va Lee (2022) Daejeon shahrida turistlarning piyoda harakati va yurish uchun qulaylik darajasini mobil ma'lumotlar asosida baholashdi. Bu infratuzilmaning jismoniy qulayligi, piyodalar infratuzilmasi va xavfsizlik kabi jihatlarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Park va Yun (2023) Gyeonggi viloyatida turistik faoliyatlarning axborot manbalari bilan bog'liqligini o'rgandi. Onlayn manbalar (OTAlar, ijtimoiy tarmoqlar) va an'anaviy turistik byurolar o'rtasidagi ta'sir farqlari aniqlanib, ularning turistlar qarorlariga ta'siri statistik usullar bilan tahlil qilindi.

Dong-Keon Kim va hammualliflar (2021) sun'iy intellekt asosida turistlar talabini oldindan bashorat qilish tizimini ishlab chiqdi. Multi-head attention va CNN modellarini birlashtirgan bu yondashuv Korea Tourism Organization tomonidan amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Sustainability jurnalining (2021) Koreya bo'yicha tahlilida sohil bo'yidagi turizmning COVID-19dan keyingi rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda barqaror ekoturizm, gigiyenik infratuzilma va qirg'oq hududlarida xizmat ko'rsatish sifati muhim omil sifatida ta'kidlangan.

OECD (2022) Koreya bo'limida mamlakatda turizm infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari, hukumat tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy yordam va me'yoriy siyosat yoritilgan. Hisobotda Koreyaning raqamli turizm xizmatlariga o'tish bo'yicha global yetakchiligi alohida ta'kidlangan.

Matsuki va Pan (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda Koreya turizm bozori va asosiy tashrifchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlashuv (convergence) holati vaqtli seriyali usullarda tahlil qilingan bo'lib, mintaqaviy marketing strategiyalariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyada turizm infratuzilmasining rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar sohaga zamonaviy, raqamli va barqaror yondashuvlarni tatbiq etishda muhim ilmiy asos bo'ldi.


Mazkur tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, Janubiy Koreyaning turizm infratuzilmasini rivojlantirishda zamonaviy, raqamli va barqaror yondashuvlarni qo'llaganligini tasdiqlaydi. Bu yondashuvlar esa turizm sohasida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham innovatsion va strategik rivojlanish yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda Janubiy Koreya turizm infratuzilma bozorining segmentatsiyasi jarayonlarini tahlil qilish va maqsadli auditoriyalarni aniqlash orqali xizmatlarni samarali rejalashtirish masalalari o'rganiladi. Ilmiy ish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan: statistik tahlil va qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ilmiy tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, 2025-yilga kelib, Janubiy Koreya sayohat va turizm sektori o'zining barqaror tiklanish bosqichiga kirib, mintaqadagi eng dinamik va iqtisodiy jihatdan jozibador yo'nalishlardan biriga aylanishi kutilmoqda. Yil yakuniga qadar ushbu bozorning umumiy daromadi 14,37 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkich pandemiyadan keyingi davrda turizmning tiklanish sur'atlari, iqtisodiy barqarorlik va strategik davlat siyosati bilan bog'liqdir. (1-rasm)



1-rasm. Janubiy Koreya turizm infratuzilmasining barqaror o'sish sur'atlari va istiqbolli prognozlar (2025-2029 yillar) (Statista, 2025)

Manba: Janubiy Koreyaning rasmiy turizm statistika hisobotlaridan hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha tegishli xalqaro tashkilotlarning tahlillaridan olingan holda muallif tomonidan yaratildi.


1-rasmdan ko'rinib turibdiki, O'tgan yillarda barqaror, lekin sekin o'sish kuzatilsa-da, 2028-2029 yillarda kutilayotgan o'sish sur'ati infratuzilma sifatining yaxshilanishi va sayyohlik talabining kuchayishini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Janubiy Koreya turizm bozori 2025–2029 yillarda turizm infratuzilmasining yillik oʻrtacha oʻsish surʼati (CAGR) 4,44% atrofida boʻlishi kutilmoqda. Bu esa 2029-yilga kelib umumiy hajmning 17,09 milliard AQSh dollariga yetishiga zamin yaratadi. Ushbu ijobiy prognozlar Janubiy Koreyada turizm xizmatlari, jumladan mehmonxona, transport, ekskursiyalar va raqamli xizmatlarga talabning ortib borayotganini koʻrsatadi (Statista, 2025).

Aniqlanishicha, 2025-yil holatiga koʻra, Janubiy Koreyada turizm sayyohlik bozoridagi eng yirik segment mehmonxonalar bozoridir. Bu yoʻnalishdan olinadigan daromad 8,58 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, 2029-yilga kelib 23,49 million foydalanuvchi mehmonxona xizmatlaridan foydalanishi prognoz qilinmoqda. Foydalanuvchilarning kirib borish darajasi 2025-yildagi 51,2% koʻrsatkichdan 2029-yilga kelib 59,2% gacha oshishi kutilyapti, bu esa isteʼmolchilar orasida ushbu xizmatlarga boʻlgan ishonchning ortib borayotganini bildiradi.

Statistik natijalar shuni koʻrsatadiki, 2025-yil uchun bir foydalanuvchidan olinadigan oʻrtacha daromad (ARPU)¹ 542,83 AQSh dollarini tashkil qiladi. Bu koʻrsatkich yuqori xizmat sifati, innovatsion yechimlar va qulay bronlash tizimlari bilan bogʻliq. Ayniqsa, raqamli transformatsiya bozorning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri boʻlib, 2029-yilgacha umumiy daromadning 87 foizi onlayn savdo orqali shakllanishi kutilmoqda. Bu esa turizm xizmatlarida elektron tijorat, OTA² platformalari va mobil ilovalarning muhim rol oʻynayotganini tasdiqlaydi (Statista, 2025).



2-rasm. Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksining tarkibilari va Janubiy Koreyaning turistik xizmatlar infratuzilmasi reytingi

Manba: Janubiy Koreyaning rasmiy turizm statistika hisobotlaridan hamda turizmni rivojlantirish boʻyicha tegishli xalqaro tashkilotlarning tahlillaridan olingan holda muallif tomonidan yaratildi.


Bugungi kunda Janubiy Koreyada ichki turizm tendensiyasi jadal rivojlanmoqda. “Staycation”³ – yaʼni oʻz mamlakati doirasida sayohat qilish – pandemiyadan keyingi davrda

¹ ARPU (Average Revenue Per User) – bu har bir foydalanuvchidan oʻrtacha tushadigan daromadni anglatadi.

² OTA (Online Travel Agency) — bu sayohat va turizm xizmatlarini internet orqali taqdim etuvchi vositachi platformalardir. Ular sayyohlarga quyidagi xizmatlarni bir joyda taqdim etadi:

³ Staycation — bu sayohat shakli boʻlib, odamlar oʻz yashash joyidan uzoqqa bormasdan, yaqin atrofdagi diqqatga sazovor joylarda dam olishni, mehmonxonada tunashni yoki madaniy-tarixiy obidalarini ziyorat qilishni tanlaydi. Bu trend ayniqsa pandemiyadan keyin ommalashib, ichki turizmning rivojlanishiga turtki berdi.

ommalashgan bo'lib, aholining yurt ichidagi yo'nalishlarga bo'lgan e'tiborini oshirdi. Hukumat tomonidan ichki turizmni rag'batlantirishga qaratilgan dasturlar, soliq imtiyozlari va infrastrukturani yangilash loyihalari bu yo'nalishni yanada mustahkamlamoqda. Natijada mahalliy mehmonxona zanjirlari, transport tizimlari va ekskursiya xizmatlariga bo'lgan talab barqaror oshib bormoqda. Janubiy Koreya yarim orol bo'lib, o'zining xilma-xil tabiiy va madaniy resurslari bilan ajralib turadi. Mamlakatning sayyohlik landshafti Seul, Pusan va Incheon kabi metropollar⁴ bilan bir qatorda Jeju oroli, Gangwon-do tog'lari va Gyeongju tarixiy shaharlarini o'z ichiga oladi. Sayohatga bo'lgan talabning diversifikatsiyalashuvi ushbu mamlakatni barqaror, raqamlashtirilgan va tajribaga asoslangan turizm markaziga aylantirmoqda (2-rasm). 2-rasm. Grafikdan ko'rinib turibdiki, turistik infratuzilma ba'zi sohalarda xizmatlar infratuzilmasi va tayyorgarlik yaxshi natijalarga erishgan, ammo boshqa sohalarda xavfsizlik, madaniy resurslar sezilarli yaxshilanishlar zarur ekanligi ko'rsatilgan. Umumiy rivojlanishni muvozanatlash uchun eng past reytingga ega sohalarga e'tibor qaratish muhimdir.



3-rasm. Janubiy Koreyaga kelgan turistlar sonining tendentsiyalari


Manba: Janubiy Koreyaning rasmiy turizm statistika Korea Culture & Tourism Institute manbasiga hisobotlaridan hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha tegishli xalqaro tashkilotlarning tahlillaridan olingan holda muallif tomonidan yaratildi.

Yuqoridagi keltirilgan 3-rasm tahlil natijalari Janubiy Koreyaga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar sonining 2005–2025 yillar oralig'idagi dinamikasini aks ettiradi. Ushbu ustunli diagramma sayyohlar oqimidagi o'sish, pasayish va tiklanish bosqichlarini aniq ko'rsatib beradi. Grafikni ilmiy tahlil qilish orqali mamlakatning turizm siyosati va tashqi omillar ta'sirini chuqurroq anglash mumkin.

4-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyaga tashrif buyurishni tanlashda turistlar tomonidan e'tiborga olinadigan asosiy omillarni ochib beradi. Grafikda turizm vohalarining taqsimoti doira diagrammasi shaklida keltirilgan bo'lib, u xorijiy sayyohlar qaror qabul qilish jarayonida qaysi omillar muhim o'rin tutishini statistik jihatdan aks ettiradi. Yuqoridagi tahlil

⁴ Metropollar — bu katta miqyosdagi, iqtisodiy, madaniy va siyosiy markaz sifatida faoliyat yurituvchi yirik shaharlardir. Ular yuqori aholi zichligi, rivojlangan infratuzilma, transport tizimi va global aloqalar bilan ajralib turadi. Masalan, Janubiy Koreyada Seul, Pusan (Busan) va Incheon metropollar sirasiga kiradi.

shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya turizmining muvaffaqiyat omillaridan biri – bu yo'nalishlarning xilma-xilligi va har bir segmentning aniq iste'molchi ehtiyojlariga moslashtirilganligidir. Ayniqsa, gastronomik va savdo turizmi mamlakat turizm siyosatida yetakchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, madaniy va tabiiy turizm yo'nalishlari ham barqaror ravishda rivojlanmoqda.



4-rasm. Janubiy Koreyaga tashrif buyurishni tanlashda e'tiborga olinadigan omillar Janubiy Koreyadagi turizm yo'nalishlarining taqsimoti

Manba: Janubiy Koreyaning rasmiy turizm statistika Korea Culture & Tourism Institute manbasiga hisobotlaridan hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha tegishli xalqaro tashkilotlarning tahlillaridan olingan holda muallif tomonidan yaratildi.

Ushbu tahlil asosida qayd etilganidek, koreys turizmining eksportbop brendlar (masalan, K-food, K-fashion) orqali tashqi bozorlardagi mavqei kuchayib borayotgani aniqlanadi. Turistik strategiyani ishlab chiqishda bu ko'rsatkichlar tayanch nuqta bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Jahon sayyohlik bozorida ilg'or o'rinni egallashda raqamli transformatsiya hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Janubiy Koreyaning raqamli ustunligi Samsung Electronics, SK Hynix va LG Electronics kabi global yarimo'tkazgich va elektronika gigantlari faoliyati bilan bevosita bog'liq. Ushbu kompaniyalar nafaqat mamlakat iqtisodiyotining tayanchini tashkil etadi, balki raqamli turizm infratuzilmasini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu korxonalar yordamida Koreya turistik xizmatlarda avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalarini keng joriy qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.⁵

Olingan natijalar asosida ta'kidlanishicha, Janubiy Koreya raqamli turizm infratuzilma platforma iqtisodiyoti sharoitida ham yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda. Naver,⁶ Kakao⁷ va Yanolja⁸ kabi mahalliy texnologik platformalar Google, Facebook va Airbnb kabi

⁵Digital transformation in Korea's tourism sector: ICT innovations and future potential. Retrieved from <https://kto.or.kr>

⁶ **Naver Corporation** — Janubiy Koreyaning eng yirik internet kompaniyalaridan biri bo'lib, u mamlakatdagi eng mashhur qidiruv tizimi Naver'ni boshqaradi. Naver Google'ga o'xshash multifunksional platforma bo'lib, unda yangiliklar, bloglar, xaritalar, video kontent, online savdo, reklama va raqamli to'lov xizmatlari integratsiyalashgan. Sayohat sohasi uchun Naver foydalanuvchilarga mehmonxonalar, sayyohlik maskanlari, restoranlar haqida ma'lumot, foydalanuvchi sharhlari va reytinglar, hamda real vaqtlilik qidiruv orqali turizmga oid xizmatlarni izlash imkonini beradi.

⁷ **Kakao Corp.** — Janubiy Koreyada raqamli kommunikatsiya va xizmatlar bozorida yetakchi o'rinni egallagan texnologik kompaniya. Uning eng mashhur mahsuloti — **KakaoTalk**, mamlakatda eng ko'p ishlatiladigan messenjer hisoblanadi. Kakao shuningdek, **Kakao T (transport xizmatlari)**, **Kakao Maps**, **Kakao Pay** (raqamli to'lov), va **Kakao Mobility** orqali turizmga oid xizmatlarni, xususan taksi chaqirish, joylashuvni aniqlash, xaritalar orqali marshrut tuzishni ta'minlaydi. Kompaniya sayyohlar uchun qulay va raqamlashtirilgan xizmatlar ekotizimini yaratgan.

⁸ **Yanolja** — Janubiy Koreyadagi yetakchi raqamli (Online Travel Agency) va mehmonxona texnologiyalari kompaniyasidir. Bu platforma foydalanuvchilarga mehmonxona, motellar, kurortlar, ijaraga beriladigan dam olish uylari, transport va turli dam olish xizmatlarini bron qilish imkonini beradi. Yanolja'ning asosiy farqlanuvchi jihati — u sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va IoT (Internet of Things) texnologiyalarini sayyohlik infratuzilmasiga integratsiya qilganligi. Kompaniya mehmonxonalar uchun "Property Management System (PMS)" yechimlarini taklif qilib, raqamli boshqaruvni soddalashtiradi.


global gigantlar bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha olmoqda. Ayniqsa, **Yanolja** platformasi turizm va mehmonxona sektorida raqamli xizmatlarni taklif etib, Janubiy Koreya turizm sanoatini transformatsiya qiluvchi kuchga aylangan.

Hisobot va statistik tahlillarga asoslanib, turizm Koreyaning yumshoq kuch (soft power)⁹ strategiyasini kuchaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. "K-pop", koreys oshxonasi, sog'lomlashtirish va ta'lim turizmi yo'nalishlari orqali mamlakatning madaniy salohiyati jahon miqyosida keng tanilmoqda (Lee, 2009). Umuman olganda, Janubiy Koreya turizm infratuzilmasini milliy strategiyaning ajralmas qismi sifatida rivojlantirib, uni ichki ijtimoiy muammolarga yechim va global iqtisodiy o'sishga turtki sifatida muvaffaqiyatli yo'naltirmoqda.

Milliy miqyosdagi muvofiqlashtirilgan siyosat, hududlararo hamkorlik va innovatsion liderlik orqali Janubiy Koreya nafaqat Osiyo, balki jahon bo'yicha eng nufuzli turistik markazlardan biriga aylanishi kutilmoqda. Endilikda bu strategik imkoniyatdan unumli foydalanish — bugungi siyosiy va iqtisodiy qarorlarning sifatiga bog'liq (Choi & Kim, 2020).

Ma'lumotlar tahlili natijasida aniqlanishicha, 2025–2033 yillar oralig'ida Janubiy Koreya turizm bozori yiliga o'rtacha 4,73% o'sish sur'ati (CAGR) bilan kengayishi prognoz qilinmoqda. Bu o'sish mamlakatning kuchli madaniy soft power omillari – xususan, K-pop, K-drama, K-food – ning global miqyosdagi ommalashuvi hamda hukumat tomonidan turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan strategik sarmoyalar bilan bevosita bog'liqdir.

Asosiy komponentlar sifatida Janubiy Koreya innovatsion turizm loyihalari orqali sayyohlar tajribasini sezilarli darajada boyitmoqda. Masalan, 2024-yilda Seul shahrida joylashgan Yeouido bog'ida ishga tushirilgan gelyli shar attraksioni tashrif buyuruvchilarga Hangang daryosi va Seul manzaralarini ko'rish imkoniyatini yaratdi. 30 yo'lovchiga mo'ljallangan ushbu yangi diqqatga sazovor joy turizmning innovatsion yondashuvlar orqali qanday rivojlanishi mumkinligini ko'rsatadi. Janubiy Koreya kuchli pazandalik turizmi tashabbuslari bilan ham ajralib turadi. 2024-yilda ishga tushirilgan "Koreya taomlarini tatib ko'ring" brendi doirasida 33 ta mashhur milliy taomlar va ichimliklar ilgari surildi. Bu nafaqat Koreya oshxonasini dunyoga tanitish, balki sayyohlarning gastronomik tajribasini boyitish orqali ularning mamlakatga qayta tashrifini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda (Korea Tourism Organization, 2024).



5-rasm. Koreya turizm bozorining segmentatsiyasi

Manba: Janubiy Koreyaning rasmiy turizm statistika Korea Culture & Tourism Institute manbasiga hisobotlaridan hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha tegishli xalqaro tashkilotlarning tahlillaridan olingan holda muallif tomonidan yaratildi.

⁹ Janubiy Koreya turizm sohasini o'zining **yumshoq kuch (soft power)** strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida faol qo'llamoqda. Yumshoq kuch konsepsiyasi — bu mamlakatning boshqa davlatlarga madaniy, siyosiy va axloqiy jozibadorlik orqali ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir.

Ma'lumotlar tahlili natijasida aniqlanishicha, IMARC Group tomonidan taqdim etilgan prognozlariga ko'ra, 2025–2033 yillarda Janubiy Koreya turizm bozori murakkab segmentatsion struktura asosida rivojlanadi. Bozorni tahlil qilish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda.

5-rasmda keltirib o'tilgan grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm bozori ko'p tarmoqli va segmentatsiyalangan tuzilishga ega. Bu esa xizmatlarning moslashuvchanligi, marketing samaradorligi va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Shu bilan birga, yosh toifalari va bronlash uslublari bo'yicha ham muvozanatli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bu esa Janubiy Koreya turizm bozoridagi segmentatsiya yo'nalishlari infratuzilma uchun yanada muhimligini aks ettiradi.

Janubiy Koreya turizm sanoatida strategik rag'batlantirish va aniq segmentatsiyaga asoslangan yondashuvlar 2025–2033 yillar davomida barqaror va tizimli o'sishni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri bo'lib qoladi. Mamlakat o'zining kuchli madaniy asoslari, ilg'or texnologik yechimlari va bozorga moslashtirilgan rag'batlantirish strategiyalari orqali xalqaro turizmda yanada kuchli pozitsiyani egallash yo'lida.

Janubiy Koreyaning turizm bozori 2025–2033 yillar davomida sezilarli o'sish sur'atini ko'rsatishi kutilmoqda. Bu o'sish, birinchidan, bozorning ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilgan segmentatsiyasi orqali strategik rivojlanish imkonini beradi.

Mazkur bozor segmentatsiyasi Janubiy Koreyada turizm sanoatining zamonaviy, moslashuvchan va raqamlashtirilgan tus olishiga olib kelmoqda. Har bir segmentga yo'naltirilgan mahsulot va xizmatlarning yaratilishi strategik rivojlanishni kuchaytirib, mamlakatning global turizm bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda.

Tadqiqot tahlili natijalariga ko'ra, Janubiy Koreyada turizm infratuzilmasining rivojlanishi raqamlashtirish, hududiy muvozanat, ekologik barqarorlik va innovatsion yondashuvlarga asoslangan kompleks tizim sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Ilmiy izlanishlar raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data va mobil axborot vositalari orqali turistik oqimlarni boshqarish, infratuzilmaviy qulaylikni oshirish hamda sog'liqni saqlash va ekologik xizmatlar orqali turizm salohiyatini kengaytirish imkoniyatlarini ochib berdi. Ushbu tahlillar Koreya tajribasining global darajadagi barqaror turizm modeli sifatida ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotning statistik tahlil natijalariga ko'ra, 2025-yilga kelib bu sektorning umumiy daromadi 14,37 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Ushbu o'sish mamlakatning puxta o'ylangan davlat siyosati, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, hamda sayyohlarning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar bilan bog'liq. Raqamli platformalar (Yanolja, Naver, Kakao) va AR/VR texnologiyalari orqali sayohat tajribasi shaxsiylashtirilib, interaktiv ko'rinishga ega bo'lmoqda.

Ushbu tadqiqotlarda aniqlanishicha, Janubiy Koreya "yumshoq kuch" (soft power) strategiyasini turizm orqali faol qo'llamoqda. K-pop, koreys oshxonasi, seriallar va madaniy festivallar xalqaro miqyosda Koreya imidjini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, pandemiyadan keyingi davrda ichki turizm (staycation) va hududiy sayohatlarning rivojlanishi aholining o'z mamlakati ichida ko'proq dam olishga moyilligi bilan izohlanadi. Bu esa qishloq joylardagi iqtisodiy faollikni oshirib, yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Takliflar

1. Innovatsion startaplar uchun qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish.

Sun'iy intellekt, AR/VR texnologiyalari, raqamli xizmatlar va virtual gidlar yo'nalishida faoliyat yurituvchi startaplar uchun davlat granti, soliq imtiyozlari va investitsiya qo'llovi taqdim etilishi lozim.

2.Ekologik barqarorlikni ta'minlash. "Yashil turizm" kontseptsiyasi doirasida ekologik xavfsiz transport vositalarini (elektrobuslar, veloyollar), energiya tejamkor mehmonxonalarni joriy qilish orqali turizm sektorining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarur.

3.Xalqaro brendlash strategiyasini kuchaytirish. Koreya milliy turizm imidjini global miqyosda ilgari surish uchun K-pop, K-drama, milliy taomlar va madaniyatdan keng foydalanish, shu orqali turistik marketing kampaniyalarini kuchaytirish tavsiya etiladi.

4.Bozor segmentatsiyasi asosida xizmatlarni diversifikatsiya qilish. Tibbiy turizm, gastronomik yo'nalishlar, sarguzasht va madaniy turlar kabi xizmatlar yo'nalishida ixtisoslashgan paketlar taklif etish orqali turli ehtiyojdagi sayyohlar uchun qulaylik yaratilishi mumkin.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

An, Y., & An, S. (2021). *The Role of Big Data Analytics in Revitalizing Tourism Infrastructure: A Case Study of Yongin*. *Korean Tourism Research Journal*, 36(2), 88–105.

Chang, M., Lee, S., & Lee, D. (2022). *Walkability and Tourist Mobility in Daejeon: Insights from Mobile Data*. *Korean Journal of Urban Studies*, 28(3), 59–78.

Choi, Y., & Kim, H. (2020). *Smart Tourism in South Korea: How technology is shaping destination branding*. *Journal of Tourism Futures*, 6(3), 203–215. <https://doi.org/10.1108/JTF-03-2020-0047>.

Kim, D. K., Choi, H., & Park, H. (2021). *Forecasting Tourist Demand Using AI: A Hybrid Multi-Head Attention and CNN Approach*. *Journal of AI & Tourism*, 1(1), 33–50.

Kim, Y. (2015). *Cultural policy in the Korean Wave: An analysis of cultural diplomacy embedded in Presidential speeches*. *International Journal of Cultural Policy*, 21(4), 433–447. <https://doi.org/10.1080/10286632.2014.956224>.

Korea Tourism Organization. (2024). *Tourism Innovations and Culinary Branding Report: 2024 Highlights*. <https://kto.visitkorea.or.kr>.

Lee, S. J. (2009). *South Korea's Soft Power: Cultural Diplomacy and the Korean Wave*. *Korea Observer*, 40(3), 425–459. Milliy brend yaratish va global sayyohlik oqimlariga yumshoq kuch orqali ta'sir qilish mexanizmlari ochib berilgan.

Matsuki, K., & Pan, H. (2023). *Convergence Analysis in the Korean Tourism Market Using Time Series Models*. *Journal of International Tourism and Economics*, 7(1), 74–92.

OECD. (2022). *Tourism Trends and Policies: Korea Chapter*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/cfe/tourism/>

Park, S., & Yun, J. (2023). *The Influence of Digital and Traditional Information Channels on Tourist Decision-Making in Gyeonggi Province*. *Tourism Informatics Review*, 4(2), 110–127.

Seo, H., & Kim, J. (2021). *Post-Pandemic Recovery Strategy in Korea's Medical Tourism Sector*. *Asia Pacific Journal of Tourism Research*, 26(8), 903–920.

Song, H., Kim, M., & Park, J. (2020). *Managing Tourism Congestion in Suwon: Temporal Dispersion Strategies*. *Journal of Tourism Studies*, 32(1), 45–60.

Statista. (2025). *Travel & tourism – South Korea market insights, forecasts and trends 2025*. Statista. <https://www.statista.com>.

Statista. (2025). *Travel & tourism market forecast South Korea 2025–2029*. Statista. <https://www.statista.com>.

Statista. (2025). *Travel & Tourism Market Forecast: Hotels Segment in South Korea 2025–2029*. Statista. <https://www.statista.com>.

Sustainability. (2021). *Coastal Tourism in Korea after COVID-19: Challenges and Prospects*. *Sustainability*, 13(12), Article 6985. <https://doi.org/10.3390/su13126985>.

Um, J., Lee, K., & Cho, Y. (2022). *Smart Tourism and the Metaverse: Incheon's Digital Infrastructure Strategy*. *Journal of Smart Tourism Development*, 3(1), 21–40.